

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning geosiyosiy jihatdan dunyodagi roli haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: XX asr boshlarida F. Ratsel (Germaniya), A. Mexen (AQSH), X. Makkinder Buyuk Britaniya), Rim – Berlin – Tokio, Vashington – London – Moskva, 1999 yildan 2005 yilgacha birgina O'zbekistonda, O'zbekiston Respublikasi BMTga 2-mart 1992-yilda, SHHT, MDH, O'zbekiston Yevrosiyo, Afg'oniston va Orol muammolariga qaratishga, Hazrat Sulton cho'qqisi (Hisor tizmasi), O'zbekistonning mikro IGO' qulayligi, Zarafshon, Quyi Amudaryo mintaqalari, Surxondaryo viloyati.

O'zbekistonning geosiyatdagi o'rnini o'rganish juda muhim sanaladi. Chunki, O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatdagi rolini aynan geosiyosiy o'rnini belgilab beradi. Qancha geosiyosiy jihatdan kuchli bo'lsa, davlat shuncha qudratli bo'ladi. Bunday olganda geosiyosat haqida so'z borganda mamlakatning har tamonlama o'rganish nazarda tutiladi. Ayniqsa, O'zbekistonning o'rnini juda qiziqarli, chunki, bu davlat o'rta osiyoda markazida joylashgan bo'lib, Markaziy osiyo mamlakatlarini bir-biri bilan bog'lovchi ko'priklarni hisoblanadi.

Geosiyosat, geografik siyosat —siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyosat atamasi muayyan bir mamlakat o'rnini, tabiiy boyliklari, iqlimi va boshqa geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga (geografik-siyosiy strategiyasi va hokazoga) muayyan ta'sirini ifodalash uchun ishlatiladi. Geosiyosat tushunchasini birinchi bor R. Chellen (SHveysariya) ilmiy muomalaga kiritgan. Geosiyosat nazariyasi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida F. Ratsel (Germaniya), A. Mexen (AQSH), X. Makkinder Buyuk Britaniya) tomonidan ishlab chiqilgan, geosiyosat Kissinjer, Z. Bjezenskiy (AQSH) va b. tomonidan hozirgi dunyodagi siyosiy jarayonlarga tadbiquan rivojlantirilgan. Geosiyosatga oid ilmiy qarashlarga davlatning geografik joylashuvi (makoni) bilan uning ichki va tashqi siyosati o'rtasidagi uyg'unlik prinsipi asos qilib olinadi. O'zbekiston o'z tashqi siyosatida da ma'lum darajada geosiyosatning asosiy tamoyillarini ham hisobga oladi.[1]. Geosiyosiy tadqiqotlarga ko'ra Yevrosiyoda kechayotgan barcha geosiyosiy jarayonlar tarixan shakllangan qat'iy qonuniyat asosida qirg'oq hududlardan qit'aning markaziga intilishga qaratilgan. Bunga birinchi jahon va ikkinchi jahon urushlari, shuningdek keyingi 15

yil davomida Bolqon yarim oroli mintaqasida, Iroq, Kavkaz, Afg'oniston va Shimoliy Koreya atrofida kechayotgan jarayonlar yaqqol misoldir. Bu jarayonlarning jiddiylashuvi dunyoni qaytadan bo'lib olishga intilishni ifoda etar ekan, bunday paytlarda aynan Yevrosiyoni qo'lga kiritish birinchi galdagi va asosiy vazifa ekanligi o'rtaga chiqadi. Qudratli davlatlar o'rtasida kechgan shafqatsiz qirg'inbarot kurashlar aynan ana shu qit'ada strategik muvozanatning buzilishi oqibatida kelib chiqqan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng avjiga chiqqan qurollanish poygasi ham geosiyosiy tadqiqotlarda aks etgan er yuzida ming yillardan davom etib kelayotgan ikki kuch qarama-qarshiligini ifoda etadi. Keng ma'noda "hartland" va "rimland" o'rtasida ziddiyat, boshqacha aytganda er yuragiga intilish bugungi kunda ham yuz yillardan beri davom etib kelayotgan geosiyosiy jarayonlarni belgilab bermoqda. Bu jarayonlar geosiyosatchi olimlar tomonidan chuqur ilmiy tadqiqotlar orqali o'rganilgan va aynan ushbu izlanishlar ko'pgina harbiy harakatlarining nazariy asosi bo'lib xizmat qilgan. Har ikki jahon urushlarida ham Berlin – Moskva – Tokio yoki Rim – Berlin – Tokio, Vashington – London - Moskva ishtirokidagi geosiyosiy loyihalar asosida qit'a taqdiri geosiyosiy o'yinlar sahnasiga aylangan va qonli urushlar ro'y bergan. Qudratli davlatlar aynan geosiyosiy tadqiqotlar asosida o'z tashqi strategiyasini qurishgan, tashqi siyosat borasida muhim qarorlar aynan geosiyosatchilarning qat'iy maslahatlariga tayangan holda amalga oshirilgan. Buni Britaniyada o'n to'qqizinchi asr oxiri va yigirmanchi asr boshlarida yashab o'tgan Xelford Makkinder hamda o'tgan asrning so'ngi choragida alohida shov-shuvga sabab bo'lgan geosiyosatchi olimlar S.Xantington, F.Fukuyama yoki Z.Bzejnskiylar misolida yaqqol kuzatish mumkin. S.Xantington o'z asarida turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi tarixiy raqobat sirlarini aynan geosiyosiy talqinda qo'lga oladi. U turli sivilizatsiyalarni talqin qilar ekan Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati va qanday geosiyosiy kuchlar ta'sirida ekanligini ko'rsatib beradi. F.Fukuyama umumbashariy miqyosdagi mondializmning targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqadi. Uning asarida ham nafaqat mintaqalar, balki qit'alar taqdiri geosiyosiy nuqtai-nazardan yagona markazga bo'ysundirilishini o'z ichiga oladi. Bzejnskiy esa o'z asarida Yer yuzidagi geosiyosiy kuchlar o'rtasidagi raqobat strategiyasini ochiqdan-ochiq ko'rsatib etakchi kuchlar o'rtasidagi raqobat aynan geosiyosiy qoidalarga asoslanishini isbotlab berdi. [2]

Yrvrosiyoda strategik muvozanatning buzilishini mamlakatimiz va mintaqamiz atrofida kechayotgan voqea-hodisalar misolida osonroq tushunish mumkin. Aniqroq aytganda, 1999 yildan 2005 yilgacha birgina O'zbekistonda ro'y bergan terrorchilik aktlari Markaziy Osiyo atrofida keyingi o'n yilliklarda ro'y berayotgan geosiyosiy jarayonlarning oqibati ekanligini namoyon etdi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti I.Karimov bu voqeaning buyurtmachilari uzoq xorijda ekanligini, umuman bunday voqealar yoqilg'i-energetika zaxiralari ulkan mintaqalar atrofida tashqi ta'sir ostida ro'y berishini ta'kidlaganlarida, geosiyosiy jarayonlarning muhimligi yanada oydinlashadi. Ana shu nuqtai-nazardan bundan buyon geosiyosatning tub mohiyatini o'rganish, bu sohada ilmiy tadqiqotlari olib borish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati va uning xavfsizligi to'g'risida ham dastavval ismlari qayd etilgan xorijlik mutaxassislar va geosiyosatchilar atroflicha fikr bildirishgan. Chunki Markaziy Osiyo qit'adagi eng yirik kuchlar, jumladan Rossiya, Xitoy, Hindiston va Eronning o'rtasida joylashganligi tufayli uning turli manfaatlar tugunida ekanligini birdiradi. Mintaqaviy xavfsizlik to'g'risidagi har qanday tadqiqot aynan geosiyosiy nuqtai-nazardan qo'lga olinishi, mintaqaning turli geosiyosiy kuchlar hamda markazlar o'rtasida joylashganligidan kelib chiqilishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa geosiyosat fanining nazariy mohiyatini anglash, xavfsizlik kategoriyasini esa aynan geosiyosiy qoidalar asosida qurish maqsadga muvofiqdir.[2]

Geosiyosiy muammolar ilmiy muammo sifatida O'zbekistonda faqat mustaqillikka erishilgandan keyin o'rganila boshlandi. Ma'lumki, har bir davlat mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'yar ekan, o'z milliy manfaatlarini tizimini aniq belgilab olishi, milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng asosiy tamoyillari hamda ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishi zarur. Buning uchun milliy yoki mintaqaviy xavfsizlik qanday tamoyillarga asoslanishini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Xavfsizlik hodisasini geosiyosiy asosda tadqiq qilish O'zbekistonda ilgari olib borilmaganligi tufayli etakchi davlatlarda bu borada olib borilgan izlanishlarga tayanishga to'g'ri keladi. [2] Hozirgi mamlakatlar uchun geosiyosat dolzarbdir. Chunki u jamoat ongdatashqi va ichki siyosiy jarayonlarini idrok etishning mafkuraviy mohiyatini anglashga yordam beradi. Geosiyosat geografiya, tarix, iqtisod, etnologiya va boshqa fanlar chegaralarida ma'lum bilimlarni talab qiladi. Bu esa professional tahlilchi uchun nafaqat makon va zamon hodisalarni malakali tahlil qilish uchun, balki bashorat, ssenariylar va rivojlanishning strategiyasini ishlab chiqish uchun ham zarurdir. Shu bilan birga geosiyosat klassikalari guvohlik berganidek, geosiyosatchi yuqori umumiy ta'lim madaniyati va eng muhimi, yangi g'oyalargeneratori bo'lishi kerak. Geopolitikaning izchil rivojlanishi o'z sohasiga nafaqatsiyosiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ekologik va boshqa jihatlarni kiritish yo'lidan boradi. Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonni har tomonlama salohiyatini oshirish, geosiyosiy kelajagini yaratish, tashqi katta o'yinlardan himoyalash asosiy maqsad qilib olingan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev

ta'kidlaganidek: Dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tusl olayotganligi, geosiyosiy raqobat, egallab turgan mavqemizni xolisona va tanqidiytahlil qilishimiz, tobora globallashuv berishimizdolzarb. [3]. O'zbekiston dunyo hamjamiyati va siyosiy xaritasida o'ziga xos mavqega ega. U hozirgi kunda Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo bo'lgan 193 davlatdan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi BMTga 2-mart 1992-yilda qabul qilingan.

O'zbekiston Yevrosiyo va Markaziy Osiyoning deyarli qoq o'rtasida joylashgan. Respublika hududi g'arbdan sharqga 1425 kmga cho'zilgan, shimoldan janubgacha masofa esa 930 km. Eng baland nuqtasi Hazrat Sulton cho'qqisi (Hisor tizmasi) dengiz sathidan 4643 m balandlikda, eng past nuqtasi Mingbuloq botig'i - 12 m.

Davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km bo'lib, shundan 2203 km yoki 1/3 qismi Qozog'iston Respublikasiga, 1721 km Turkmanistonga, 1161 km Tojikistonga, 1069 km Qirg'izistonga va 137 km Afg'oniston Respublikasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonning mikroiqtsodiy geografik o'rni (hududning o'ziga qo'shni bo'lgan davlatlarga nisbatan tutgan o'rni) ancha qulayligi bilan xarakterlanadi. Bu holat, avvalo, uning Markaziy Osiyo respublikalarining qoq o'rtasida joylashganligi va barcha mintaqa davlatlari bilan to'g'ridan to'g'ri chegaradoshligi tufayli kelib chiqadi. O'zbekistonning mikro IGO' qulayligi qo'shni respublikalar bilan barcha turdagi quruqlik transport (avtomobil, temiryo'l, quvur) tuzilmalari bilan nisbatan yaxshi bog'langanligida ham o'z ifodasini topadi. Mikro IGO'dagi bunday qulayliklar tarixiy davrlardan hozirgacha O'zbekistonni mintaqa davlatlari orasida aholisi eng zich, yirik shaharlarga boy, iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan darajaga olib chiqqan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida bu borada quyidagi fikmi keltirgan: «O'zbekistonning hududiy makon xususiyatlari, uning geografik o'rni bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega... O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'taydi. Bulaming barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, diet el investitsiyalarini jalb qilish, O'zbekistonni davlatlar o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzitining o'zida xos mintaqaviy markaziga aylantiradi». O'zbekistonning bunday qulay iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlari har bir qo'shnilari tomonidan aholisi zich joylashgan tutash (kontakt) hududlarda (Farg'ona vodiysi, Zarafshon, Quyi Amudaryo mintaqalari, Surxondaryo viloyati) hozirgi

davrda ko'plab turli ixtisosdagi respublikalararo hududiy ishlab ehiqarish majmualari, qo'shma korxonalaridan tortib erkin iqtisodiy hudularni tashkil qilishgacha keng imkoniyatlar beradi. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo'lgan transchegaraviy daryolar va yo'llar muammolari hal etilishi respublika mikrogeografik o'rnining yanada qulaylashuviga olib keladi. Yaqin atrofida joylashgan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, Eron, Kavkaz respublikalariga nisbatan O'zbekistonning mezo iqtisodiy geografik o'rni (yaqin mintaqalarga nisbatan tutgan o'rni) o'rtacha qulayliklarga egaligi bilan tavsillanadi. Mezo IGO'ni bunday baholanishining sababi shundaki, O'zbekiston bir tomondan, Kavkaz respublikalari, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bilan, asosan, zamonaviy transport vositalari orqali samarali bog'langan va bu davlatlar bilan an'anaviy ravishda ko'p tomonlama yaqin aloqalar olib boradi. Jahon davlatlari orasida eksport-import aloqalari hajmiga ko'ra, Rossiyaning yetakehilik qilib kelayotganligi buning isbotidir. Ikkinchi tomondan, janubda joylashgan va O'zbekistonning mezo IGO' guruh davlatlari toifasiga kiruvchi Afg'oniston, Eron davlatlari butun o'tgan tarixiy davrlar davomida respublikamiz bilan har tomonlama keng ijtimoiy aloqada bo'lib kelgan bo'lsa-da, hozirgi vaqtda bunday aloqalarni olib borishga mavjud texnik va siyosiy qiyinchiliklar to'siq bo'lib turibdi. Davlatlararo iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning yanada samarali natijalar berishi uyun jahonning uzoqroq mamlakatlari bilan bog'lanish, boshqacha aytganda, makrokengliklar talab etiladi. Ammo, dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqa o'rnatishda materik iehkarisida joylashgan davlatlar dengiz bo'yidagilarga nisbatan bir qancha noqulayliklarga duch keladi. O'zbekiston yaqin dengizlarga chiqishi uchun kamida ikki davlat hududini bosib o'tishiga to'g'ri keladigan jahondagi kamdan kam davlatlaridan biri boiganligi sababidan makroiqtisodiy geografik o'rni (jahon davlatlariga nisbatan tutgan o'rin) nisbatan noqulaydir. Mustaqillik yillarida turli yo'nalishlarda O'zbekistonni dunyo okeani bilan bog'lovchi xalqaro yo'l loyihalarida faol ishtirok etishi mazkur holatni biroz yengillashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining siyosiy geografik o'rni klassik geosiyosatchilar tomonidan ajratilgan Yevrosiyoning ichki kontinental qismi, ya'ni Xartlend (ingl. Heartland - "dunyoning yuragi"), hamda Yevrosiyoning janubi-g'arbiy dengizga yaqin mintaqasi Rimlend (Rimland "ichki yarim oy")ning o'zaro tutashgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Bu holat esa jahonda yetakchilikni qo'lga kiritishni rejalashtirayotgan ko'plab davlatlarning respublikamizga nisbatan geosiyosiy qiziqishlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonning qulay transport geografik o'ringa egaligi, davlatimizning strategik resurslar hisoblanmish - neft, gaz, oltin, uran va boshqa ko'plab yerosti va usti boyliklariga egaligi, qulay tabiiy iqlim sharoiti, insoniyat tarixiy taraqqiyoti va

sivilizatsiyasida salmoqli o'rin tutishi, katta demografik salohiyatning mavjudligi uning o'ziga xos geosiyosiy imkoniyatlarga egaligini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, uning siyosiy geografik o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm xavfi, respublikamiz hududini narkotrafik yo'laklari sifatida foydalanishga harakat, global miqyosdagi ekologik muammolar, turli davlatlar orasidagi geosiyosiy raqobat, Afg'onistondagi beqaror siyosiy vaziyat O'zbekiston mazkur geografik o'rin ko'rinishiga ta'sir etuvchi salbiy omillar bo'lib hisoblanadi. Mazkur salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida respublika rahbariyati tomonidan katta miqyosdagi ishlar amalga oshirilgan.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasi yig'ilishlaridagi ma'ruzalarida jahon hamjamiyati diqqatini birinchi navbatda aynan Afg'oniston va Orol muammolariga qaratishga undagan edi. Respublikamizning Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha "6+2" guruhidagi faoliyati qo'shni davlatda tinchlikni o'rnatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishga

qaratilgan. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi transchegaraviy daryolar, Qirg'iziston o'rtasidagi eksklav (tegishli davlat hududining asosiy qismidan boshqa davlat hududi bilan ajralib turgan yerlar) va ba'zi chegara hududlari, Tojikiston bilan davlat chegarasida oxiriga yetkazilmagan delimitatsiya (chegara chizig'ini aniqlashtirib, mustahkamlash) ishlari bo'yicha yuzaga kelgan muammolar birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim geosiyosiy muammolardan bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun qator davlatlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Atrof qo'shnilaridan tashqari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy kabi davlatlar bilan yaqin aloqalar o'rnatgan. Shu bilan birga SHHT, MDH kabi tashkilotlarning faoliyatida doimiy ishtirokchi hisoblanadi.

masalasifatidakuntartibigaqo'yilmoqda.Bugunbutundunyodavaharbirmamlak atdakenvastrategikdunyoqarashga, global tafakkurga, konkret makon va vaziyatlarda operativ qarorqabul qilish qobiliyatiga, to'g'ri yo'l tanlash imkoniga ega bo'lgan professionalgeosiyosatchi va siyosatshunoslarning his qilishmoqda.[4]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki O'zbekiston siyosiy ,iqtisodiy - ijtimoiy jihatdan qudratli davlat ekan . Buni esa yuqorida keltirilgan aniq faktlardan bilishimiz mumkin . Geosiyosiy jihatdan esa faqatgina iqlimi ozgina noqulaylik tug'diradi ,bu esa mamlakat obro'siga ta'sir etishi mukin .O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatda ham bir qator ishlarni amalga oshirgan ekan .

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 17-moddasi O'zbekistonning tashqi siyosatidagi asosiy masalalarni qonun bilan mustahkamlagan ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2018-yil.
2. O'zbekistonda politologiya. -T.: SHarq, 2002.
3. AMADOV AKTAMKUL RAFIKOVICH "GEOSIYOSAT ASOSLARI"
Samarqand davlat universiteti Kengashining 2021 yil 24 avgustdagi 1-bayonnoma qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.
4. O'zbekistonning geosiyosiy o'рни va munosabatlari. 10-sinf geografiyasi o'quv qo'llanmasi.

